

Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich,

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasи professori v.b., DSc

Atajanova Guli Maxsudovna,

*Urganch-Ranch texnologiya universiteti
o'qituvchisi, magistrant*

IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BOZOR XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda bozor xizmatining tutgan o'rni, uni rivojlantirish zaruriyati, imkoniyatlari va uni samarali amalga oshirish yo'nalishlari yoritilib, xulosa va tavsiyalar bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье освещена роль рыночного сервиса в развитии отраслей экономики, необходимость его развития, возможности и направления его эффективной реализации, а также представлены выводы и рекомендации.

Abstract. This article highlights the role of market service in the development of economic sectors, the need for its development, opportunities and directions for its effective implementation, and conclusions and recommendations are presented.

Kalit so'zlar. Iqtisodiyot, bozor, bozor xizmati, marketing, xizmat, bozor faoliyati.

Ключевые слова. Экономика, рынок, рыночные услуги, маркетинг, сервис, рыночная деятельность.

Key words. Economy, market, market service, marketing, service, market activity.

Kirish. Bugungi kunda muhim ustuvor yo'nalish bo'lib iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish hisoblanadi. Bu vazifaga erisishni bozorlar faoliyatini samarali rivojlantirish va ularda ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirish ta'minlaydi. Bu borada mamlakatimizda chuqur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi O'zbekistonda bozor mexanizmlarini shakllantirish yo'nalishlari bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda bozor imkoniyatlarini yaxshilash masalasi quyidagicha ta'kidlab o'tilgan: "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish, shuningdek tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish lozim [1]. **Shunday ekan**, O'zbekistonda bozor faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi. Buni samarali amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq.

Bozor xizmatini mohiyati hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha alohida ahamiyatga ega bo'lib, uni tadqiq qilishning zarurligini ko'rsatadi. Bu bo'yicha respublikamiz bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish va boshqarishni yanada takomillashtirish, aholiga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va savdo qilish shart-sharoitlarini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi [2]. Bozor xizmatlari respublikamiz hududlari darajasida turli servis xizmatlari ko'rsatishni rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish va hududlar yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishsa-da, iqtisodiyot tarmoqlari darajasida sohaga investitsiyalar jalb qilishni kengaytirish, tarmoqlarning o'sish holatlarini farqlashtirish va yangi xizmat turlariga bo'lgan talabni shakllantirish va o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, bozor xizmatini turli shakl va darajalardagi rivojlanish zaruriyati yangi innovatsiyalarni yaratishni o'z ichiga oladigan bozorning ishlash faolligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqilishini taqozo qiladi.

Bozor faoliyatini o'rganish yuzasidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Chunki, bozorlar faoliyati iqtisodiyotning muhim yo'nalishi sifatida aholining turmush farovonligi va hayot

darajasini yaxshilash bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jihat ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taqozo etadi. Bunday muhim omilga erishish uchun ushbu jarayon, tushuncha va ularni ifodalovchi iqtisodiy kategoriyalarning ilmiy-nazariy masalalarini tadqiq qilishni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Erkin iqtisodiy model bozorni rivojlanishning eng mashhur yo'lidir. Undagi asosiy belgilar sotuvchi va xaridor bo'lib, talab va taklif muvozanatga intiladi. Bozor iqtisodiy kategoriya sifatida xaridorlar va sotuvchilar, shuningdek savdo vositachilari o'rtafigi bozor munosabatlari subyektlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiruvchi va mehnat almashinuvini ta'minlaydigan tovarlar va pul harakati bo'yicha amalga oshiriladogan iqtisodiy munosabatlar majmuidir. Ya'ni, bozor xaridorlar (iste'molchilar) va sotuvchilar (yetkazib beruvchilar) o'rtafigda alohida tovarlar, xizmatlar va resurslar almashinuvini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va xizmatlar yig'indisidir. Bozorlar buyum, moliyaviy va onlayshakllarda bo'lishi mumkin. Bozorlar milliy va jahon iqtisodiyoti faoliyatida markaziy o'rin turib, ayirboshlash jarayonlarini osonlashtiradi, iqtisodiy o'sish va sifatni rag'batlantiradi [4]. Bozor iqtisodiy tizim sifatida hudud, davlat, mamlakat yoki jamiyatda tovarlar yoki xizmatlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtafigi muntazam ayirboshlash operatsiyalariga asoslangan mulkiy munosabatlar amalga oshiriladi. Hamda, unga rivojlangan iqtisodiy mexanizmlar asosida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar xos bo'ladi. Bozorlar bir qator asosiy vazifalarni bajaradi, jumladan, resurslarni taqsimlash, qayta taqsimlash, narxlarni aniqlash va boshqarish, **tavakkalchilikni** boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va kengaytirish [8]. Bozorlar vazifalarini amalga oshirish samarali iqtisodiy rivojlanish asosi hisoblanadi.

Bozor - xaridorlar (iste'molchilar) va sotuvchilar (yetkazib beruvchilar) o'rtafigda alohida tovarlar, xizmatlar va resurslar almashinuvini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va mexanizmlar yig'indisidir. Bozorlar buyum, moliyaviy va onlayshakllarda bo'lishi mumkin. Shularga muvofiq, A.Dobrinin bozorlarni milliy va jahon iqtisodiyoti faoliyatida ishtirop etib, ayirboshlash jarayonlarini osonlashtiradi, iqtisodiy o'sish va sifatni rag'batlantiradi, deb talqin qiladi [4]. Buning uchun birinchi galda tovarlar va xizmatlar bozorining va ular bilan bog'liq tushunchalarning nazariy masalalariga alohida ahamiyat berilishi lozim.

Shu bilan birga, ayirboshlashning paydo bo'lishi va pul harakati natijasida aholiga turli xizmatlar ko'rsatilib, bu bozorlar orqali amalga oshirilgan iqtisodiy hodisa bo'lib qaraladi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda bozorlarni shakllanishi XX asning 90-yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda bozor islohotlari va xususiy lashtirish jarayonlari sodir bo'ldi. Iqtiaodiy faoliyat davlat tomonidan tartibga solinib, uning samarali amaga oshirilishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratib bergen. Davlat asosiy xizmat ko'rsatuvchi subyekt bo'lib qaraladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida turli faoliyat sohalari ishtiropchilarining o'zaro bo'linishiga olib keldi. Shu orqali iqtisodiy islohotlar orqali xizmat ko'rsatish sohasi obyektiv ravishda o'zini-o'zi ta'minlash va moliyalashtirish sharoitida rivojlandi.

Bugungi kunda xizmatlar raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlash va xizmat ko'rsatish faoliyatini rivojlantirish uchun mo'ljallanadi. Bunda ixtisoslashtirilgan tuzilmalarni tashkil etilib, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi lozim. Bunda xizmatlarni ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq holda iqtisodiy va tashkiliy jihatdan ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Biroq, ko'pgina xizmat turlari yuqori daromadli xizmatlarni yaratadi.

Shu bilan birga, xususiy kapital jamiyat uchun ziyor va rentabelli xizmatlar sohalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bugungi kunda xizmat faoliyati davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ta'minlanadi, Jumladan, uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish, temir yo'l va shahar transporti, pochta, telegraf, telefon, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi va ijtimoiymadaniy xizmatlarning salmoqli qismi shular jumlasidandir. Ushbu segmentlarda xizmat ko'rsatish ta'riflari doimiy ravishda o'sib bormoqda va pullik xizmatlar ulushi esa ortib bormoqda. Davlat xizmatlari sohasi bilan birga xususiy sektor ham rivojlanmoqda. Ushbu tarmoqlar o'rtafigda raqobat kuchayib bormoqda. Ammo, ushbu xizmat ko'rsatish mahsulotlari tannarxi va xizmatlar narxining pasayishiga bog'liq bo'lmaydi. Bu esa iste'molchilar daromadlarining doimiy o'sib borayotgan qismini xizmat ko'rsatishga ajratishga olib keladi. Bu esa aholining ko'p qismini

qondiradi. Ushbu jihat bozor rivojlanishni boshdan kechirib, bu o'sib borayotgan raqobat, firmalar daromadlarini oshirishga intilishi va moddiy ishlab chiqarishning murakkablashishi bilan bog'liq bo'ladi.

Xizmat turli omillar ta'sirida bo'lgan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmi ishtirokchisi ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Bu holatda davlat o'z faoliyatini samarali soliq tizimini barpo etish, tadbirkorlik uchun shart-sharoit yaratishga yo'naltirmoqda. Xizmat ko'rsatish sifatiga ta'sir etuvchi malakali mutaxassislarning mavjudligi, aholi farovonligi, uning an'analari va mentaliteti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri va xizmatni bajaruvchisi sifatida bozorni roli dolzarbdir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashishi, bozorni yangi tovarlar bilan to'ldirishi va fan-texnika taraqqiyotining tez sur'atlar bilan o'sishi bilan bog'liq bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish sohasi kishilar hayotini yaxshilashga qaratilganligi tufayli uning tarmoqlari va ko'lami juda keng. Ushbu soha mamlakat yalpi ichki mahsulotida o'zining sezilarli o'rniga ega bo'lib bormoqda. Shu tufayli, sohada ishlashga mo'ljallangan kadrlar ham tayyorlanishi yo'lga qo'yilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va aholining bandlik masalasini hal qilish kabi tadbirlarga qaratilgan bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu esa olib borilgan ishlarni yanada aniqlashtirish va mamlakatda islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan amaliy tadbirlardan biridir. Ayniqsa, so'nggi yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish bo'yicha izchil choralar ko'rilmoxda. Xizmatlar tarkibi xizmatlarning yangi istiqbolli turlari, xususan turizm, bank-moliya, sug'urta, axborot-kommunikatsiya xizmatlari va boshqalarni rivojlantirish hisobiga takomillashib bormoqda. Oilalarni murakkab maishiy texnika, kompyuterlar va shaxsiy avtotransport bilan ta'minlashning keskin oshishi ularga ko'rsatilayotgan xizmatlarning keskin ko'payishiga imkon yaratdi.

Bozor xizmatlari xizmatlar bozorining unsuri sifatda qatnashadi. Bozor iqtisodiyotining quyi tizimi sifatida xizmatlar bozori mavjud mulkiy munosabatlar doirasida faoliyat yuritib, bozor iqtisodiyoti orqali rivojlanadi. Xizmatlar bozori xizmatlarga bo'lgan talab va taklifni bog'lovchi tizim sifatida ishlaydi. Bunda xizmatlar ishlab chiqaruvchilari va xizmatlar iste'molchilari pul egalari bo'lib hisoblanadi. Xizmatlar bozori tovarlar va xizmatlarning ilgari birlashtirilgan bozoridan ajralib turadigan bozor turi bo'lib hisoblanadi. Ushbu bozorda sotuv obyektlari sifatida keng ko'lamli xizmatlar qaraladi. Mazkur bozorda turli xizmatlarni sotib olish va sotish bilan bog'liq xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladi. U orqali tovar ishlab chiqarish va muomala qonunlariga muvofiq ayriboshlash jarayoni amalga oshiriladi.

Xizmatlar bozori faoliyatining muhim xususiyatlari quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi:

- tez kapital aylanmasi. Bozor uzoq ishlab chiqarish siklini ta'minlamaydi, biroq tadbirkor korxona rivojiga sarmoya kiritib, qisqa vaqt ishida foyda oladi.

- o'zgaruvchanlik. Bozor mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezda javob beradi. Xizmatlar kelgusida foydalanish uchun taqdim etilishi mumkin emas, ya'ni ular aholining hozirgi ehtiyojlariga qaratilgan bo'ladi.

- amalga oshirish imkoniyati. Xizmatlarni taqdim etish mijoz va korxona vakillari o'rtasidagi shaxsiy aloqalarni o'z ichiga oladi. Bu esa marketing va aloqa uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratib, ushbu jihat xodimlarni professionalligiga yuqori talablarni qo'yadi.

- yuqori diversifikatsiya. Talabning murakkab tuzilishi bozor rivojlanishi va texnologiyani takomillashtirishning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib hisoblanadi. Nostandard xizmatlar va "nau-xau" paydo bo'lib, ular yangi mijozlarni jalb qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

- talabning beqarorligi. Bozor sharoitiga mavsumiylik, tendensiya va yangi xizmatlarning paydo bo'lishi haqida jamoatchilikni xabardor qilish kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

- Hududiy segmentatsiya. Iste'molchilarning xizmatlarga bo'lgan talabi ularning yashash joyi bilan bog'liq bo'ladi. Bunga ob-havo sharoiti, an'analari va markazdan uzoqlik omillari ta'sir qiladi.

- kichik korxonalarini ustunligi. Xizmatlar bozorida asosiy ulush kichik va o'rta korxonalarga tegishli bo'lib, ular bozor konyunkturasi o'zgarishiga javob bera oladi va mijozlarning yangi talablariga moslashadi.

- mahalliylashtirish. Mijozlarning ehtiyojlari ular yashaydigan joyda qondiriladi. Masalan, har bir hududda o'z diagnostika markazi, sartaroshxona, kafe va boshqalar mavjud bo'ladi.

- bozorga kirish uchun to'siqlar. Korxonani tanlashda mijozlar narx va qo'shimcha boshqa omillarga e'tibor beradilar. Bunga korxonaning bozordagi obro'i, xavfsiz texnologiyalardan foydalanish, taqdim etilayotgan xizmatning o'ziga xosligi va ofis intereri ta'sir qiladi.

Bozorning muhim kategoriyalaridan biri bu bozor xizmatlari hisoblanadi. U orqali bozorlarni turli usullar orqali rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, bozorni xizmatlari ko'rsatish mexanizmlari milliy davlat hokimiyati organlari orqali shakllanadi. Shunday qilib, ba'zi umumiy bozor xizmatlari mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- narxlarni nazorat qilish - davlat aralashuviga asoslangan mexanizm bo'lib, u muayyan tovarlar yoki xizmatlar uchun olinishi mumkin bo'lgan narxlarni chegaralarini belgilaydi. Narxlarni nazorat qilish eng past narxlarni va narx chegaralari shaklida bo'lishi mumkin. Narxlarni nazorat qilish iste'molchilarni davlat tomonidan himoya qilish mexanizmi sifatida qo'llaniladi, ammo u bozorga yetkazib beriladigan tovarlar va xizmatlarning yetishmasligi va sifatini pasaytirish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

- soliqlar va subsidiyalar - ular bozordagi xaridorlar va sotuvchilarning hatti-harakatlari samarali ta'sir qilish uchun qo'llaniladi. Soliq va subsidiyalar hukumat tomonidan muayyan xatti-harakatlarni rag'batlantirish yoki bozordagi muvaffaqiyatsizliklarni tuzatish uchun ishlatilishi mumkin.

- tartibga solish - davlat aralashuvining ushbu mexanizmi bozorlarning raqobatbardoshligi va umumiy samaradorligini ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin. Bozorni tartibga solishga monopoliyaga qarshi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar misol bo'la oladi. Tartibga solish bozordagi muammolarni bartaraf qilish va iste'molchilarni salbiy ta'sirlardan himoya qilish uchun qo'llaniladi. Ammo, tartibga solish milliy bozor mexanizmlarini ob'ektiv o'zgarishlarga moslashtirish uchun qo'llaniladi.

Bozorlar faoliyatidagi muhim unsur bo'lib xizmat tushunchasi hisoblanadi. Chunki, xizmatlar sohasi iqtisodiyotning kelajakdagi tez rivojlanadigan sohalaridan biri hisoblanadi. T.Tultayev bugungi kunda xizmat ko'rsatmaydigan tadbirkorlik turi mavjud emasligini alohida ta'kidlaydi [7]. Aslida, xizmat tushunchasi xizmat faoliyatining natijasi bo'lib, olinadigan samarani ifodalaydi va kishilarning talablarini qondirishga xizmat qiladi. Bu borada M.Nikolayeva xizmatni yetkazib beruvchi (ijrochi) va iste'molchi o'rtasidagi bevosita o'zaro munosabatlar, shuningdek, iste'molchi ehtiyojlarini qondirish bo'yicha yetkazib beruvchining ichki faoliyati natijasi, deb ta'riflaydi [5]. Bozorlarda ko'rsatiladigan xizmat bevosita sifat va texnologiyaga bog'liq bo'lsa, u servisni aks ettiradi. J.Rathmell fikricha, servis iqtisodiy tarmoqqa (service economics) oid tushuncha bo'lib, uning qiymati iste'molchilarni 30-40 foiz sarf-xarajatlariga teng baholanadi [3].

Shularga muvofiq, bozor xizmati tushunchasi ilmiy tushuncha sifatida xorijda shakllangan, degan xulosaga kelish mumkin. Bu borada ushbu tushunchani o'rganuvchi xalqaro tadqiqotchilar guruhi mavjud. Professional tashkilotlar tomonidan bozor xizmati tushunchasini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Uni aks ettiruvchi tushuncha xizmatlar marketingi bo'yicha xalqaro xizmatlar marketing maktablari ham shakllangan. Xizmatlar marketingi muammolarini yorituvchi xalqaro ilmiy jurnallar nashr etilmoqda [6].

Fikrimizcha, bozor xizmatlari orqali sotib olish va sotish obyekti bo'lgan bozor xizmatlari, ishlab chiqaruvchi, ya'ni ko'rsatuvchi tomon xarajatlari ularni sotishdan tushgan tushumlar hisobidan to'liq yoki ko'p miqdorda qoplanadi. Bularga ulgurji va chakana savdo xizmatlari, umumiy ovqatlanish korxonalari, barcha turdag'i transport, yuklash va tushirish, ekspeditorlik, saqlash va ta'mirlash, ta'mirlash (avtomobillar, poyabzal, soatlar va boshqalar), uy-joylarni saqlash, sug'ortalash (majburiy xizmatlarsiz) ijtimoiy sug'urta), moliya institutlari (valyuta ayirboshlash va hisob yuritish), sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ta'lim, axborot va hisoblash

xizmatlari, turli advokatlardan huquqiy maslahatlar, notarial idoralardan xizmatlar va hokazo kiradi. Bozorda haqiqatda sotiladigan xizmatlardan tashqari, bozor xizmatini ko'rsatuvchi subyeklar tarkibiga barcha xizmatlarni taqdim etuvchilar kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va abstrakt fikrlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bozor xizmatlari uchun bozor infratuzilmasi zarur bo'lib, bu har xil turdag'i bozorlarga xizmat ko'rsatuvchi, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadigan turli muassasalar, korxonalar va tashkilotlar majmuasidir. Ular qatoriga birjalar, banklar, moliya-kredit vositachilari, tijorat fondlari, sug'urta agentliklari, bandlik xizmatlari, savdo va boshqa tashkilotlar kiradi va ularni har biri o'z sohasida faoliyat yuritadi. Bozor infratuzilmasi tovarlar, xizmatlar, tabiiy resurslar, pul va qimmatli qog'ozlar aylanishini osonlashtiradi, mehnat resurslarini samarali taqsimlash va ulardan foydalanish, kapitalni optimal tarzda investitsiyalash imkonini beradi hamda bozor institutlari faoliyati uchun xavfsizroq sharoit yaratadi. Bozor infratuzilmasida vositachilar muhim rol o'ynaydi. Unga asosan, bozor ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi hamkorlik joyi bo'lganligi sababli tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan xaridorga o'tishi xaridorlarning sa'y-harakatlarini amalga oshirishni talab qiladi. Ushbu holatlar ishlab chiqaruvchi tomonidan hal qilinsa, vaqt va resurslar sarflanishi amalga oshiriladi. Iste'molchi zarur tovarlar va xizmatlarni topish uchun qo'shimcha vaqt va resurslarni sarflaydi. Shu bois, bozor rivoji uchun vositachilar zarur bo'ladi.

Zamonaviy bozor infratuzilmasining tarkibi quyidagi unsurlardan iborat bo'ladi:

- birjalar (tovar, xom ashyo, fond, valyuta) va ularning tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan vositachiligi;

- auksionlar, yarmarkalar va birjadan tashqari vositachilikni tashkil etishni boshqa shakllari;
- kredit tizimi va tijorat banklari;
- emissiya tizimi va banklari;
- aholi bandligini tartibga solish tizimi va bandlikka yordam ko'rsatish markazlari;
- axborot texnologiyalari va ishbilarmonlik aloqasi vositalari;
- soliq tizimi va inspeksiyasi;
- tijorat iqtisodiy tavakkalchilagini sug'urta qilish tizimi;
- maxsus reklama agentliklari, axborot markazlari va ommaviy axborot vositalari;
- savdo-sanoat palatalari, ishbilarmon doiralarning jamoat, ixtiyoriy va davlat birlashmalari;
- bojxona tizimi;
- xodimlarni kasaba uyushmalari;
- savdo va ko'rgazma majmualari;
- oliv va o'rta iqtisodiy ta'lim tizimi;
- auditorlik tashkilotlari;
- maslahat kompaniyalari;
- tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga mo'ljalangan mablag'lar;
- maxsus erkin tadbirkorlik zonalari.

Tahlillarga asosan, bozor xizmatlarini ko'rsatishning ijobiyligi tomonlari uning majburiyatlari va vazifalari sifatida quyidagilardan iborat bo'ladi:


Qo'shimcha majburiyatlar:

- taqdim etilgan tovarlarni sotish hajmini oshirish;
- savdo markazlarida mijozni tanlash;
- taqdim etilgan brendlari haqida xabardorlikni oshirish;
- sotilayotgan narsaga xaridorning majburiyatini shakllantirish;
- xaridorlarning korxona mahsulotlariga sodiqligini oshirish;
- ayrim mahsulotlarni bilish darajasini oshirish;
- xodimlar orasida e'tiborni kuchaytirish;
- ish jarayonini nazorat qilish va o'z vaqtida xabar berish;
- bozor ma'muriyati bilan korxonani yaqin aloqasini ta'minlash.

Qo'shimcha xizmatlar:

- shartnomalar tuzishda chakana savdo nuqtalarini tanlash;
- tarmoqlarni alohida ajratishni kiritish;
- barcha sotish kanallari uchun standartlarni ishlab chiqish;
- to‘g‘ridan-to‘g‘ri sotishni amalga oshirish.

Bugungi kunda bozor xizmatlari taraqqiy qilib bormoqda. Undagi xizmatlarning turlari zamonaviy shaklda rivojlanib bormoqda. Uning har bir turi o‘ziga mos xizmat turiga asoslanadi. Ya’ni, mintaqada xizmatlar bozori tarkibida ko‘rsatilayotgan barcha umumiy xizmatlar quyidagicha tasniflanadi.



Mintaqada ko‘rsatilayotgan umumiy xizmat turlari haqida ma'lumot¹

Ushbu rasmga asosan, mazkur xizmatlarning tarkibiga kiradigan va bugungi kunda mintaqada ko‘rsatilayotgan barcha xizmatlar turli tasniflarga ajratiladi.

Mamlakatda bozor xizmati – iste’molchilarning sodiqligini shakllantirish, jozibali imidjni rivojlantirish va biznes jarayonlarini optimallashtirishda ishtiroy etish orqali mijozlarimizning

¹ Mualliflar ishlanmasi.

mahsulotlari yoki xizmatlarini ilgari surishdir. Bozorda xizmatlar transport, aloqa, savdo, moddiy- texnika ta'minoti, maishiy, uy-joy communal xizmatlari, moliya, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, madaniyat va san'at, shuningdek axborot va hisoblash, muhandislik yuridik va konsalting, birja va vositachilik xizmatlari, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, ijara va lizing xizmatlari, bozorni o'rganish bo'yicha xizmatlar, marketingni tashkil etish, sifat nazorati, sotishdan keyingi xizmat kabi sohalarni o'z ichiga oladi.

2023-yilda Xorazm viloyati mintaqasida ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmi [9]

Hududlar nomi	mlrd. so'mda	2022-yilga nisbatan foizda
O'zbekiston Respublikasi	30294,8	107,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	841,5	105,6
Andijon viloyati	1477,2	100,9
Buxoro viloyati	1250,2	105,2
Jizzax viloyati	658,6	102,0
Qashqadaryo viloyati	1263,9	101,4
Navoiy viloyati	778,3	105,6
Namangan viloyati	1211,9	102,7
Samarqand viloyati	1892,2	102,4
Surxondaryo viloyati	1075,1	104,6
Sirdaryo viloyati	417,5	100,2
Toshkent viloyati	2098,3	100,4
Farg'ona viloyati	1792,1	106,3
Xorazm viloyati	873,6	105,6
Toshkent shahri	11485,3	110,4

Manba: O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2023-yil yanvar. - Toshkent, 2023 - 27 6

Ushbu jadvalga ko'ra, 2023-yil yanvar holatiga mamlakatimizda ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmi 30294,8 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilgan nisbatan 107,3 foizga oshgan. Xorazm viloyatida esa ushbu ko'rsatkich 873,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilga nisbatan 105,6 foizga oshgan. 2023-yil yanvar holatiga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish tarkibida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 6,7 foizga, moliyaviy xizmatlar 25,3 foizga, transport xizmatlari 23,7 foizga, savdo xizmatlari 23,1 foizga, ta'lim sohasidagi xizmatlar 3,7 foizga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 1,7 foizga, shaxsiy xizmatlar 2,5 foizga va boshqa xizmatlar 13,3 foizga teng bo'lган.

Xulosa va takliflar. Bozor xizmatlari xizmat ko'rsatish tarkibida alohida o'rinn tutib, aholi va iste'molchi ehtiyojlarini qondiradigan, sotuvchi va xaridor o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni natijasida amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Bozorda turli xizmatlarni rivojlanish uchun iste'molchi yoki xaridor o'rtasidagi iqtisodiy-munosabatlarni samarali amalga oshirish lozim. Buning uchun iste'molchini tanlash erkinligini e'tiborga olish lozim. Bozor xizmati zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibida muhim rol egallaydi. Uning samarali rivojlanishi uchun umumiyligi xizmatlari ko'rsatish tizimini shakllantirish lozim.

Shuningdek, bozor xizmatlarining rivojiga bevosita bozor infratuzilmasi hissa qo'shadi. Ushbu xizmatlarning keng taraqqiy qilishi natijasida umumiy xizmat turlari ham ko'payadi. Xorazm viloyati mintaqasida ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmi viloyat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyasini belgilaydi. Bozor xizmatini samarali amalga oshirish uchun xizmatlar sifati, madaniyati va xavfsizligi darajalariga, shuningdek barcha subyektlar va ijtimoiy-madaniy omillarga e'tibor qaratiladi. Ushbu xizmatning asosini mahsulot va xizmatlarni ayriboshlash jarayonidagi muammolarni hal qilish jarayoni tashkil etadi. Hamda bozorda taqdim etiladigan xizmatlar iste'molchi va korxona faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Uning maqsadi bozor sharoitida raqobatbardoshlik va rentabellikni ta'minlashdir. Buning uchun xizmat ko'rsatish tizimini yuqori sifatli tashkil etish va uni iste'molchiga qaratish lozim. Bu esa inson faoliyatiga

bog‘liq bo‘lib, zamonaviy jamiyatga xos jihat bilan belgilanadi. Hamda, u hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga va aholiga yangi ish o‘rinlarini yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 28-avgustdagи O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 253-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-2045196>

3. John M. Rathmell. What Is Meant by Services? Journal of Marketing. Vol. 30, No. 4 (Oct., 1966). - p. 32-36. <http://belzludovic.free.fr/nolwenn/Rathmell%20-20What%20Is%20Meant%20by%20Services%20%28cité%2053%29%20-%201966.pdf>

4. Добрынин А.И. Экономическая теория: Учебник для вузов. 4-е издание. – Санкт-Петербург, Питер, 2009. - 560 с. ISBN 978-5-388-00457-4.

5. Николаева М. А. Маркетинг товаров и услуг: Учебник. - М.: Издательский Дом “Деловая литература”, 2001. - 140 с.

6. Новаторов Э.В. Маркетинг услуг: теория и технология: Монография. - СПб.: ИП Петров Д.А., 2015. – с. 26.

7. Тультаев Т.А. Маркетинг услуг: Учебно-методический комплекс. - М.: Изд. центр ЕАОИ. 2008. – 176 с.

8. Баликоев В. Общая экономическая теория. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2022. - 528 с. ISBN 978-5-16-010695-3.

9. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2023-yil yanvar. - Toshkent, 2023 - 27 6.